e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/a7qf5x23

ERON ISLOM RESPUBLIKASI HUKUMATINING AFG‘ON QOCHOQLARIGA OID SIYOSATI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Ahmedova Hulkar Shermuhammad qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, mustaqil tadqiqotchi.
e-mail: ahmedova23@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/

Annotatsiya.

Ushbu ilmiy maqolada Eron Islom Respublikasi hukumatining afg‘on qochqinlariga nisbatan olib borayotgan migratsiya siyosati, uning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy asoslari hamda mintaqaviy xavfsizlikka ta’siri tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida Eron Islom Respublikasi hududida istiqomat qilayotgan afg‘on qochqinlarining huquqiy maqomi, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari, mehnat bozoridagi ishtiroki hamda migratsiya jarayonlarini tartibga solishning huquqiy mexanizmlari batafsil o‘rganiladi. Maqolada Eron tomonidan amalga oshirilayotgan deportatsiya siyosati, noqonuniy migratsiya va milliy xavfsizlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, shuningdek, mazkur ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mamlakat ichki barqarorligi hamda mintaqaviy xavfsizlikka ta’siri ilmiy nuqtayi nazardan baholanadi. Shuningdek, davlat tomonidan joriy etilgan Omoyish (Amayesh) tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va uning migratsiya jarayonlarini nazorat qilishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida Eron Islom Respublikasining migratsiya siyosatidagi mavjud tizimli muammolar aniqlanib, ushbu sohani takomillashtirish, ijtimoiy integratsiya jarayonlarini jadallashtirish hamda mehnat migratsiyasini samarali tartibga solishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar va istiqbolli strategik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mazkur maqola migratsiya siyosati va mintaqaviy xavfsizlik masalalarini o‘rganuvchi tadqiqotchilar hamda mutaxassislar uchun ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Eron Islom Respublikasi, Afg‘oniston, afg‘on qochqinlari, migratsiya siyosati, deportatsiya, milliy xavfsizlik, ijtimoiy integratsiya, mehnat migratsiyasi, Omoyish (Amayesh) tizimi.

ПОЛИТИКА ПРАВИТЕЛЬСТВА ИСЛАМСКОЙ РЕСПУБЛИКИ ИРАН В ОТНОШЕНИИ АФГАНСКИХ БЕЖЕНЦЕВ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Ахмедова Хулкар Шермухаммад кизи
Ташкентский государственный университет востоковедения, самостоятельный соискатель.

Аннотация.

В данной научной статье проводится системный анализ миграционной политики правительства Исламской Республики Иран в отношении афганских беженцев, её правовых и социально-экономических основ, а также влияния на региональную безопасность. В рамках исследования подробно рассматриваются правовой статус афганских беженцев, проживающих на территории Исламской Республики Иран, их возможности доступа к образованию и медицинским услугам, участие на рынке труда и правовые механизмы регулирования миграционных процессов. В статье с научной точки зрения оцениваются взаимосвязь между проводимой Ираном политикой депортации, нелегальной миграцией и национальной безопасностью, а также влияние указанных социально-политических процессов на внутреннюю стабильность страны и региональную безопасность. Особое внимание уделяется специфике государственной системы регистрации беженцев «Амаеш» (Amayesh) и её роли в контроле миграционных процессов. На основе результатов исследования выявляются существующие системные проблемы миграционной политики Исламской Республики Иран и разрабатываются научно-практические предложения и перспективные стратегические рекомендации, направленные на совершенствование данной сферы, ускорение процессов социальной интеграции и эффективное регулирование трудовой миграции. Статья представляет научный интерес для исследователей и специалистов, занимающихся вопросами миграционной политики и региональной безопасности.

Ключевые слова: Исламская Республика Иран, Афганистан, афганские беженцы, миграционная политика, депортация, национальная безопасность, социальная интеграция, трудовая миграция, система «Амаеш» (Amayesh).

THE POLICY OF THE GOVERNMENT OF THE ISLAMIC REPUBLIC OF IRAN TOWARD

ISSN 3060-5059 (Online)

AFGHAN REFUGEES: CHALLENGES AND PROSPECTS

Ahmedova Hulkar Shermuhammad qizi
Tashkent State University of Oriental Studies, Independent Researcher.

Abstract.

This scientific article provides a systematic analysis of the migration policy pursued by the government of the Islamic Republic of Iran toward Afghan refugees, its legal and socioeconomic foundations, and its implications for regional security. The study examines in detail the legal status of Afghan refugees residing in Iran, their access to education and healthcare services, their participation in the labor market, and the legal mechanisms regulating migration processes. The article assesses the interrelationship between Iran's deportation policy, irregular migration, and national security, as well as the impact of these sociopolitical processes on the country's domestic stability and regional security. Particular attention is paid to the specific features of the government-administered Amayesh refugee registration system and its role in monitoring and regulating migration. Based on the research findings, the study identifies existing systemic challenges in Iran's migration policy and develops practical and research-based proposals and strategic recommendations aimed at improving migration governance, accelerating social integration, and ensuring the effective regulation of labor migration. The article is of scholarly relevance to researchers and specialists studying migration policy and regional security.

Keywords: Islamic Republic of Iran, Afghanistan, Afghan refugees, migration policy, deportation, national security, social integration, labor migration, Amayesh system.

Kirish. Bugungi kunda xalqaro migratsiya jarayonlari global siyosatning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, qochqinlar muammosi xalqaro xavfsizlik, inson huquqlarini ta’minlash va barqaror rivojlanish bilan chambarchas bog‘liqdir. So‘nggi yillarda Afg‘onistonda kuzatilayotgan siyosiy beqarorlik, qurolli mojarolar hamda 2021-yilda Tolibon harakatining hokimiyat tepasiga kelishi majburiy migratsiya oqimlarining keskin ortishiga olib keldi. Mazkur jarayon, eng avvalo, Afg‘oniston bilan uzoq yillardan buyon umumiy chegaraga ega bo‘lgan Eron Islom Respublikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Eron Islom Respublikasi qariyb yarim asrdan buyon afg‘on qochqinlarini qabul qilib kelayotgan dunyoning eng yirik mezbon davlatlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakat hududida turli huquqiy maqomga ega millionlab afg‘on fuqarolari istiqomat qilmoqda. Ular sonining ortib borishi mehnat bozori, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘liqni saqlash, ta’lim, demografik jarayonlar hamda milliy xavfsizlikka bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy sanksiyalar, ichki iqtisodiy muammolar va noqonuniy migratsiya oqimlarining kuchayishi Eron hukumatini migratsiya siyosatini takomillashtirish hamda qochqinlar masalasiga nisbatan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga undamoqda.

Mazkur sharoitda Eron Islom Respublikasining afg‘on qochqinlariga oid siyosatini, uning huquqiy asoslari, institutsional mexanizmlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy oqibatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qochqinlarni ro‘yxatga olish tizimi, ularning ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishi, mehnat bozoridagi ishtiroki, deportatsiya siyosati hamda ushbu jarayonlarning milliy va mintaqaviy xavfsizlikka ta’sirini o‘rganish bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Eron Islom Respublikasining afg‘on qochqinlariga oid siyosatini kompleks tahlil qilish, uning huquqiy va institutsional asoslarini baholash hamda migratsiya siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqotda Eron migratsiya siyosatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, afg‘on qochqinlarining huquqiy maqomi, Omoyish tizimining o‘ziga xos jihatlari, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan deportatsiya siyosati hamda mazkur jarayonlarning milliy va mintaqaviy xavfsizlikka ta’siri tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Afg‘on qochqinlari muammosi, ularning huquqiy maqomi va mezbon davlatlarning migratsiya siyosatini takomillashtirish masalalari zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, S. Saidi Eronning afg‘on fuqarolariga nisbatan migratsiya siyosatini kompleks tahlil qilib, uning huquqiy asoslari, Omoyish ro‘yxatga olish tizimi, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari, mehnat bozoridagi ishtiroki hamda ijtimoiy integratsiya mexanizmlarini o‘rgangan. Muallif migratsiya siyosatini inson xavfsizligi tamoyillari asosida takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan [1].

Afg‘on qochqinlarining Eron ichki xavfsizligiga ta’siri M. X. Mamajonova tomonidan tadqiq etilib, unda noqonuniy migratsiya, ijtimoiy integratsiya, iqtisodiy yuklama hamda transchegaraviy xavfsizlik bilan bog‘liq muammolar tahlil qilingan. Muallif qochqinlar masalasini faqat xavfsizlikka tahdid sifatida emas, balki mamlakatning demografik va iqtisodiy salohiyatiga ta’sir etuvchi omil sifatida ham baholagan [2].

Eron–Afg‘oniston munosabatlarining siyosiy, iqtisodiy va diplomatik jihatlari I. Ye. Fedorova tomonidan tadqiq etilgan. Muallif Eron tashqi siyosatining pragmatik xususiyatlari, chegara xavfsizligi, noqonuniy migratsiya, narkotrafik hamda afg‘on qochqinlarining ikki davlat munosabatlariga ta’sirini tahlil qilgan [3].

Afg‘oniston va Eron o‘rtasidagi tarixiy hamda zamonaviy munosabatlar, chegara xavfsizligi, qochqinlar muammosi, suv resurslari, narkotrafik va mintaqaviy hamkorlik masalalari S. Barya tadqiqotlarida yoritilgan [4]. Mazkur

yo‘nalishdagi tadqiqotlarni davom ettirgan D. A. Karpov Tolibon hokimiyatga kelganidan keyin Eron–Afg‘oniston munosabatlarida yuz bergan o‘zgarishlarni tahlil qilib, diplomatik aloqalar, chegara xavfsizligi, qochqinlar oqimi va suv masalalarining ikki davlat munosabatlariga ta’sirini ochib bergan [5].

Tolibonning hokimiyatga qaytishi sharoitida Eron tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari N. B. Axmadjonov tadqiqotida yoritilib, unda Eronning pragmatik yondashuvi, “yumshoq kuch” konsepsiyasi hamda yaxshi qo‘shnichilik tamoyillariga asoslangan strategiyasi tahlil etilgan [6]. Ushbu mavzu J. A. Abdurasulov tomonidan kengroq mintaqaviy kontekstda davom ettirilib, Afg‘onistonda hokimiyat almashinuvining Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligi, geosiyosiy jarayonlar hamda iqtisodiy va gumanitar hamkorlikka ta’siri baholangan [7].

Eron va Tolibon o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarning evolyutsiyasi O‘. F. Qalandarov tomonidan uch bosqich asosida tahlil qilinib, Eronning “Sharqqa qarash” strategiyasi, pragmatik hamkorlik modeli hamda mintaqaviy geostrategik manfaatlari yoritilgan [8]. Shuningdek, Sh. M. Nurmetov Afg‘onistonning Eron tashqi siyosatidagi geosiyosiy va geoiqtisodiy ahamiyatini ochib berib, ushbu mamlakatning Eron milliy xavfsizligi va mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashdagi strategik o‘rnini asoslab bergan [9].

Eronning 2021-yildan keyingi Afg‘oniston siyosati J. Haqpanah tomonidan kompleks yondashuv asosida tadqiq qilinib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar aloqalar bilan bir qatorda migratsiya, terrorizm va narkotrafik muammolarining Eron tashqi siyosatiga ta’siri tahlil qilingan [10]. Mintaqaviy xavfsizlikning yana bir muhim omili bo‘lgan transchegaraviy suv resurslari masalasi G. K. Sanetullayeva tomonidan Hilmand daryosi misolida o‘rganilib, suv diplomatiyasi hamda suv omilining Eron–Afg‘oniston munosabatlariga ta’siri baholangan [11]. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarni O. M. Nessar davom ettirib, Tolibon hokimiyatga kelganidan keyingi Afg‘oniston–Eron munosabatlarini pragmatik hamkorlik nuqtayi nazaridan tahlil qilgan hamda xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik, transchegaraviy suv masalalari va Tehronning yangi afg‘on hukumatiga nisbatan siyosiy yondashuvini yoritgan [12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot Eron Islom Respublikasining afg‘on qochqinlariga oid davlat siyosatini siyosiy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kompleks tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv asosida shakllantirilib, migratsiya siyosatining institutsional mexanizmlari, huquqiy asoslari hamda uning milliy va mintaqaviy xavfsizlikka ta’siri o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi.

Tadqiqotda tarixiy yondashuv orqali Eronning afg‘on qochqinlariga nisbatan siyosatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, xususan, 1979-yildan keyingi migratsiya jarayonlari hamda 2021-yilda Tolibon harakatining hokimiyatga kelishidan so‘ng yuzaga kelgan o‘zgarishlar tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida Eronning turli davrlardagi migratsiya siyosati, qochqinlarni boshqarish amaliyoti hamda xalqaro tajribalar o‘zaro taqqoslandi. Tizimli tahlil usuli asosida migratsiya siyosati, milliy xavfsizlik, ijtimoiy integratsiya, mehnat bozori va davlat boshqaruvi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik baholandi.

Shuningdek, institutsional tahlil usuli orqali Omoyish ro‘yxatga olish tizimi, Eron Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Chet el fuqarolari va muhojirlar ishlari bo‘yicha byuro (BAFIA), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo‘yicha Oliy komissarligi (UNHCR) hamda Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) faoliyati va ularning migratsiya jarayonlarini boshqarishdagi o‘rni o‘rganildi. Huquqiy tahlil usuli yordamida Eron Islom Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari, xalqaro konvensiyalar hamda qochqinlar huquqlarini tartibga soluvchi me’yoriy asoslar tahlil qilindi. Kontent-tahlil usuli asosida ilmiy maqolalar, monografiyalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, davlat organlarining rasmiy axborotlari va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan materiallar o‘rganildi.

Tadqiqotning empirik bazasini Eron Islom Respublikasi davlat organlari, UNHCR, IOM, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning statistik hamda tahliliy ma’lumotlari, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Olingan statistik ma’lumotlar statistik tahlil usuli yordamida umumlashtirilib, afg‘on qochqinlarining soni, huquqiy maqomi, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish darajasi, mehnat bozoridagi ishtiroki hamda deportatsiya jarayonlariga oid ko‘rsatkichlar baholandi. Tadqiqot yakunida umumlashtirish, ilmiy sintez va mantiqiy xulosa chiqarish usullari asosida Eronning afg‘on qochqinlariga oid davlat siyosatidagi mavjud muammolar aniqlanib, uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Eron Islom Respublikasi bugungi kunda dunyodagi eng ko‘p afg‘on qochqinlarini qabul qiluvchi davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatning Afg‘oniston bilan umumiy chegaraga egaligi, tarixiy, diniy va madaniy yaqinligi hamda geografik joylashuvi uni afg‘on fuqarolari uchun asosiy migratsiya yo‘nalishiga aylantirgan. So‘nggi qariyb 50 yil davomida Eron hududiga millionlab afg‘on fuqarolarining kirib kelishi mamlakatning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Biroq migratsiya jarayonlarini boshqarishning uzoq muddatli va kompleks mexanizmlari yetarli darajada shakllanmaganligi natijasida qochqinlar masalasi ijtimoiy muammodan milliy xavfsizlik masalasiga aylanib bormoqda.

2021-yilda Tolibon harakatining Afg‘onistonda hokimiyatni egallashi Eron hududiga kirib kelayotgan afg‘on fuqarolari sonining keskin ortishiga sabab bo‘ldi. Natijada mamlakatda istiqomat qilayotgan xorijiy fuqarolarning mutlaq ko‘pchiligini afg‘onlar tashkil etmoqda. Eron Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Chet el fuqarolari va migrantlar ishlari markazi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil holatiga mamlakatda o‘rtacha 5 million nafarga yaqin afg‘on fuqarosi istiqomat qilmoqda. 2025-yilning dastlabki o‘n oyida esa 1,6 million nafardan ortiq noqonuniy migrant deportatsiya qilingan [13]. Ushbu ko‘rsatkichlar Eron migratsiya siyosatining xavfsizlik komponenti tobora kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Eron Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Chet el fuqarolari va muhojirlar ishlari bo‘yicha byuro (BAFIA) tomonidan e’lon qilingan 2025-yil mart oyiga oid ma’lumotlarga ko‘ra, Eronda istiqomat qilayotgan afg‘on fuqarolarining huquqiy maqomi turlicha bo‘lib, bu migratsiya tizimining eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Rasmiy ma’lumotlarga

ISSN 3060-5059 (Online)

ko‘ra, 771 ming nafari Omoyish kartasi egasi sifatida qochqin maqomida ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, 271 ming nafari oilaviy pasport, 2,033 million nafari ro‘yxatdan o‘tish varaqasi, 1,023 million nafari esa turli xil vaqtinchalik vizalar asosida mamlakatda yashamoqda. Shu bilan birga, qariyb 2 million nafar afg‘on fuqarosi hech qanday huquqiy hujjatlarga ega emas [14]. Bu holat migrantlarning huquqiy maqomini belgilash va ular ustidan samarali davlat nazoratini amalga oshirishda jiddiy institutsional muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Afg‘on fuqarolarining turli huquqiy maqomlarda yashashi ularga nisbatan qo‘llaniladigan huquq va majburiyatlarning ham sezilarli darajada farqlanishiga olib kelmoqda. Hozirgi vaqtda Eronda Omoyish kartasi, oilaviy pasport, qochqinlik daftarchasi, doimiy yashash guvohnomasi, vaqtinchalik ish kartasi, talabalar uchun ruxsatnoma hamda boshqa turdagi hujjatlar amal qilmoqda. Bunday ko‘p bosqichli hujjatlashtirish tizimi davlat organlariga migratsiya oqimlarini nazorat qilish imkonini bersa-da, migrantlar uchun byurokratik to‘siqlarni kuchaytiradi va yagona migratsiya boshqaruvi tizimini shakllantirishni murakkablashtiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Erondagi afg‘on qochqinlari, asosan, mamlakatning yetti viloyatida istiqomat qiladi hamda ularning 99 foizi maxsus lagerlarda emas, balki mahalliy aholi bilan birgalikda shahar va qishloqlarda yashaydi. Bundan tashqari, afg‘on aholisining 67 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Aholining yosh demografik tarkibi, bir tomondan, mehnat resurslarini kengaytirish imkoniyatini yaratsa, ikkinchi tomondan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik va ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan talabning ortishiga sabab bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda Eron hukumati afg‘on qochqinlarining ijtimoiy integratsiyasini ta’minlash maqsadida qator ijobiy chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan, umumiy savodxonlik darajasi sezilarli darajada oshgan, boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bilan qamrov kengaygan, ayrim toifadagi migrantlar uchun kasb-hunar ta’limi, SIM-karta olish, bank xizmatlaridan foydalanish, vaqtinchalik ish ruxsatnomasi hamda sug‘urta tizimidan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan. Shu bilan birga, maktabni tugatgan yoshlarning mehnat bozoriga erta kirib borishi, iqtisodiy ehtiyojlar va oilaviy omillar ta’limni davom ettirishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Sog‘liqni saqlash sohasida ham afg‘on qochqinlariga nisbatan differensial yondashuv qo‘llanilmoqda. Davlat tomonidan yuqumli kasalliklar profilaktikasi va birlamchi tibbiy yordam bepul ko‘rsatilayotgan bo‘lsa-da, ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlardan foydalanish, asosan, sug‘urta yoki shaxsiy mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi. Bu esa daromadi past bo‘lgan migrantlar uchun sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanishni cheklovchi omillardan biri bo‘lib qolmoqda.

So‘nggi yillarda Eron Islom Respublikasining afg‘on qochqinlariga nisbatan siyosatida xavfsizlik omili ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda. Xususan, 2024-yil avgust oyida “Xorijiy fuqarolarning kirishi va yashashi to‘g‘risida”gi qonunning 16-moddasiga bir qator o‘zgartirishlar kiritish taklif etildi. Mazkur o‘zgartirishlarga muvofiq, noqonuniy migrantlarni mamlakat hududidan chiqarib yuborish, xorijiy fuqarolar sonining mahalliy aholi soniga nisbatan 3 foizdan oshmasligini ta’minlash, ularning sonini bosqichma-bosqich kamaytirish hamda hujjatsiz migrantlarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga nisbatan ma’muriy va jinoiy javobgarlik choralarini kuchaytirish nazarda tutilgan [15].

Mazkur qonunchilik tashabbuslari 2025-yildan boshlab amaliyotga joriy etildi. Natijada afg‘on fuqarolarining mehnat faoliyati, asosan, qurilish, qishloq xo‘jaligi va qo‘l mehnatini talab qiladigan sohalar bilan cheklanib, hujjatsiz migrantlarni ishga jalb qilgan ish beruvchilarga nisbatan olti oygacha ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo‘llash belgilandi. Ushbu yondashuv, bir tomondan, milliy mehnat bozorini himoya qilishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, noqonuniy bandlikning yashirin shakllari saqlanib qolishi xavfini kuchaytirishi mumkin.

2025-yilda Eron va Isroil o‘rtasidagi harbiy-siyosiy keskinlik migratsiya siyosatining mazmuniga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ayrim afg‘on fuqarolarining xorijiy maxsus xizmatlar faoliyatiga aloqadorlikda gumon qilinishi natijasida migratsiya masalasi tobora milliy xavfsizlik nuqtayi nazaridan baholana boshlandi. Natijada noqonuniy migrantlarga nisbatan nazorat kuchaytirildi va qisqa muddat ichida 900 ming nafardan ortiq afg‘on fuqarosi mamlakat hududidan deportatsiya qilindi. Mazkur holat Eron migratsiya siyosatida insonparvarlik yondashuviga nisbatan xavfsizlik konsepsiyasi ustuvor ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Eron tomonidan qo‘llanilayotgan Omoyish tizimi afg‘on qochqinlarini ro‘yxatga olish va nazorat qilishning asosiy mexanizmi bo‘lib qolmoqda. Ushbu tizim orqali qochqinlarga bir yillik vaqtinchalik yashash huquqi beriladi hamda 18–63 yoshdagi erkaklarga vaqtinchalik mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish imkoniyati yaratiladi. Biroq mamlakatda afg‘on fuqarolari uchun alohida rasmiy mehnat vizasi tizimining mavjud emasligi ularning uzoq muddatli bandligini ta’minlash imkoniyatlarini cheklamoqda.

Amaldagi tartibga ko‘ra, xorijiy ishchini ishga qabul qilish uchun ish beruvchi maxsus ruxsatnoma olishi shart bo‘lib, ish o‘rinlarini taqsimlashda, avvalo, Eron fuqarolariga ustuvorlik beriladi. Mazkur tizim milliy mehnat bozorini himoya qilishga xizmat qilayotgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda hujjatsiz migrantlarning norasmiy sektorda faoliyat yuritishini rag‘batlantiruvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois migratsiyani samarali boshqarish nafaqat nazorat choralarini kuchaytirishni, balki qonuniy mehnat migratsiyasi mexanizmlarini kengaytirishni ham talab etadi.

2026-yilda Eron hududida yuzaga kelgan harbiy-siyosiy vaziyat afg‘on qochqinlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Norvegiya qochqinlar kengashi (Norwegian Refugee Council — NRC) bosh kotibi Yan Egelandning ta’kidlashicha, Eronda istiqomat qilayotgan 4,4 milliondan ortiq afg‘on qochqinlari urush va iqtisodiy inqiroz oqibatida og‘ir gumanitar vaziyatga duch kelgan. Harbiy harakatlar natijasida ko‘plab oilalar daromad manbalaridan ayrilgan, minglab oilalar yashash joylarini tark etishga majbur bo‘lgan hamda qochqinlar orasida ta’lim, psixologik yordam va ijtimoiy himoyaga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortgan. NRC ma’lumotlariga ko‘ra, xalqaro moliyaviy yordamning yetarli emasligi mavjud muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda hamda Eronning qochqinlarni qabul qilish imkoniyatlarini cheklamoqda [16]. Bu afg‘on qochqinlari muammosini faqat migratsiya masalasi sifatida emas, balki

mintaqaviy gumanitar xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Eron Islom Respublikasi uzoq yillar davomida millionlab afg‘on fuqarolarini qabul qilib kelayotgan bo‘lsa-da, mamlakatda ularning to‘laqonli ijtimoiy integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan yagona davlat siyosati shakllanmagan. Natijada ko‘plab afg‘on fuqarolari o‘nlab yillar davomida Eronda yashayotgan bo‘lishiga qaramay, ularning aksariyati hanuz vaqtinchalik huquqiy maqomda qolmoqda. Bu holat ularning mehnat, ta’lim, mulkiy munosabatlar hamda ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi.

So‘nggi yillarda xavfsizlik bilan bog‘liq tahdidlarning ortishi Eron jamiyatida afg‘on qochqinlariga nisbatan munosabatning o‘zgarishiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Dastlab insonparvarlik tamoyillari ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda noqonuniy migratsiya, terrorizm, transchegaraviy jinoyatchilik va tashqi xavfsizlik omillari jamoatchilik fikrida afg‘on migrantlariga nisbatan ehtiyotkorlikning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois migratsiya masalasi tobora ko‘proq milliy xavfsizlik siyosatining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqilmoqda.

Xalqaro inson huquqlari tashkilotlari esa Eronning amaldagi migratsiya siyosatiga nisbatan qator e’tirozlarni ilgari surmoqda. Xususan, ayrim hududlarda afg‘on fuqarolarining yashashi va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishiga qo‘yilgan hududiy cheklovlar, ko‘chmas mulkka egalik qilish huquqining mavjud emasligi, ayrim kasblarda ishlash taqiqlangani hamda fuqarolik olish tartibining murakkabligi qochqinlarning jamiyatga to‘liq integratsiyalashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan ijobiy islohotlarga qaramay, ayrim hududlarda hujjatsiz oilalar farzandlarining ta’lim olishi hamon qiyinchiliklar bilan kechmoqda.

Mehnat bozori tahlili shuni ko‘rsatadiki, afg‘on fuqarolari, asosan, qurilish, qishloq xo‘jaligi, chiqindilarni qayta ishlash va boshqa og‘ir jismoniy mehnat talab qiluvchi sohalarda band. Ularning yuqori malakali kasblarda faoliyat yuritishi amaldagi qonunchilik bilan cheklangan. Bundan tashqari, ko‘chmas mulkka egalik qilish, bank va ayrim telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish hamda iqtisodiy faoliyatni mustaqil amalga oshirish borasidagi cheklovlar ularning iqtisodiy integratsiyasini murakkablashtirmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Eronning afg‘on qochqinlariga oid siyosati ikki asosiy yo‘nalish — insonparvarlik majburiyatlari va milliy xavfsizlik manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan. Biroq mintaqadagi geosiyosiy vaziyatning murakkablashuvi, iqtisodiy sanksiyalar, noqonuniy migratsiya oqimlarining ortishi hamda xavfsizlikka oid yangi tahdidlar migratsiya siyosatini yanada qat’iylashtirish tendensiyasini kuchaytirmoqda. Shu sababli kelgusida migratsiya boshqaruvini faqat ma’muriy nazorat vositalari orqali emas, balki huquqiy maqomni soddalashtirish, mehnat migratsiyasini qonuniylashtirish, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Eron Islom Respublikasining afg‘on qochqinlariga nisbatan olib borayotgan siyosati insonparvarlik tamoyillari, milliy xavfsizlik manfaatlari hamda iqtisodiy ehtiyojlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan murakkab boshqaruv tizimi hisoblanadi. Mamlakat qariyb yarim asr davomida millionlab afg‘on fuqarolarini qabul qilib kelayotgan bo‘lsa-da, migratsiya jarayonlarini tartibga solishning uzoq muddatli yagona strategiyasi mavjud emasligi qochqinlarning huquqiy maqomini belgilash, ularning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlash hamda noqonuniy migratsiyani nazorat qilishda qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot natijasida Omoyish tizimi qochqinlarni ro‘yxatga olish va davlat nazoratini amalga oshirishning muhim institutsional mexanizmi ekani aniqlandi. Biroq ushbu tizim afg‘on fuqarolarining jamiyatga to‘liq integratsiyalashuvi, barqaror bandligini ta’minlash hamda ularning ijtimoiy-huquqiy himoyasini kuchaytirish uchun yetarli imkoniyat yaratmayapti. Rasmiy mehnat migratsiyasi mexanizmlarining cheklanganligi, ayrim kasblar va hududlar bo‘yicha mavjud cheklovlar hamda fuqarolik olish tartibining murakkabligi qochqinlarning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot davomida, shuningdek, mintaqadagi geosiyosiy vaziyat, iqtisodiy sanksiyalar, noqonuniy migratsiya oqimlarining ortishi va milliy xavfsizlik bilan bog‘liq tahdidlar Eron migratsiya siyosatida xavfsizlik omilining tobora ustuvor ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatdi. Shu sababli migratsiya siyosatini faqat nazorat va deportatsiya choralariga asoslash uzoq muddatli istiqbolda kutilgan natijani bermaydi. Mazkur jarayonni samarali boshqarish uchun xavfsizlik choralari bilan bir qatorda ijtimoiy integratsiya, qonuniy mehnat migratsiyasi va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni qo‘llash zarur.

Tadqiqot natijalari Eron Islom Respublikasining amaldagi migratsiya siyosatini hisobga olgan holda, yaqin va o‘rta istiqbolda qochqinlarni boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator institutsional va tashkiliy chora-tadbirlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ehtimolini ko‘rsatadi. Xususan, ushbu jarayon quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi mumkin:

- migratsiya boshqaruvining institutsional tizimini yanada takomillashtirish hamda afg‘on qochqinlari bilan ishlovchi davlat organlari faoliyatini yagona muvofiqlashtiruvchi mexanizm asosida tashkil etish;
- Omoyish tizimini raqamlashtirish va modernizatsiya qilish orqali qochqinlarni ro‘yxatga olish, ularning huquqiy maqomini rasmiylashtirish hamda migratsiya jarayonlari monitoringi samaradorligini oshirish;
- qonuniy mehnat migratsiyasi mexanizmlarini kengaytirish, vaqtinchalik mehnat vizalarini qo‘llash amaliyotini rivojlantirish va malakali afg‘on fuqarolarini rasmiy mehnat bozoriga kengroq jalb etish;
- ta’lim, kasb-hunarga tayyorlash va ijtimoiy integratsiya dasturlarini rivojlantirish orqali qochqinlarning mehnat bozoriga moslashuvini qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy keskinliklarning oldini olish;
- UNHCR, IOM va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, qochqinlarni qabul qilayotgan hududlarga xalqaro moliyaviy va texnik ko‘makni jalb etish hamda migratsiya boshqaruvi bo‘yicha qo‘shma dasturlarni amalga oshirish.

Umuman olganda, afg‘on qochqinlari masalasi Eron Islom Respublikasi uchun vaqtinchalik migratsiya muammosi emas, balki uzoq muddatli strategik ahamiyatga ega bo‘lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va xavfsizlik masalasidir. Shu bois migratsiya siyosatini inson huquqlari, milliy manfaatlar va mintaqaviy barqarorlik tamoyillarini uyg‘unlashtirgan kompleks yondashuv asosida takomillashtirish nafaqat Eron, balki butun mintaqada barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saidi S. A Critical Review of Iran’s Immigration Policies Toward Afghans: Providing an Alternative Path // Quarterly Journal of Social Sciences. – 2025. – Vol. 32, № 110.

2. Мамажонова М. Х. Афганские беженцы в Иране: угроза или возможность для внутренней безопасности // XXI asr: fan va ta’lim masalalari. – Toshkent, 2025. – № 3. – С. 576–582.

3. Федорова И. Е. Ирано-афганские отношения на современном этапе // Восток. Афро-азиатские общества: история и современность. – Москва, 2020. – № 5. – С. 135–141.

4. Барья С. Афганистан и Иран: исторические предпосылки и современные отношения // Евразийский Союз: вопросы международных отношений. – Москва, 2021. – № 5 (39). – С. 413–418.

5. Карпов Д. А. О динамике ирано-афганских отношений: аналитический материал по материалам Observer Research Foundation (India). – 2023. – 21 апреля.

6. Axmadjonov N. B. Afg‘oniston Islom Respublikasi va Eron Islom Respublikasi munosabatlarida tashqi siyosat strategiyasi // «Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida» mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2024. – B. 129–133.

7. Abdurasulov J. A. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy vektorida Afg‘onistondagi hokimiyat o‘zgarishining (iqtisodiy, siyosiy va gumanitar) o‘rni // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 139–147.

8. Qalandarov O‘. F. Eron va Tolibon o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarning evolyutsiyasi // XXI asr: fan va ta’lim masalalari. – Toshkent, 2025. – № 2. – B. 306–313.

9. Nurmetov Sh. M. Eron tashqi siyosatida Afg‘onistonning geosiyosiy va geoiqtisodiy ahamiyati // «Yosh eronshunoslar» ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024. – B. 123–129.

10. Хакпанах Д. Политика Ирана в контексте афганского кризиса после 2021 г. // Россия и мир: научный диалог. – 2023. – № 2 (8). – С. 107–117. – DOI: https://doi.org/10.53658/RW2023-3-2(8)-107-117.

11. Sanetullayeva G. K. Afg‘oniston–Eron munosabatlarida suv omilining siyosiylashuvi va diplomatik muammolar // Образование, наука и инновационные идеи в мире. – 2026. – № 93. – Ч. 4. – B. 413–419.

12. Нессар О. М. Афгано-иранские отношения при власти «Талибана» // Вестник РГГУ. Серия: Политология. История. Международные отношения. – 2025. – № 6. – С. 84–104. – DOI: https://doi.org/10.28995/2073-6339-2025-6-84-104.

13. ۵ میلیون مهاجر افغانستان در ایران حضور دارند: مقام ایرانی // Amu TV [Elektron resurs]. – 16.12.2025. – URL: https://amu.tv/fa/219654/ (murojaat sanasi: 29.01.2026).

14. شرایط جدید کار اتباع افغان در ایران اعلام شد // Tabnak [Elektron resurs]. – 19.12.2025. – URL: https://www.tabnak.ir/fa/news/1346737 (murojaat sanasi: 03.02.2026).

15. جمهوری اسلامی: در وضعیت «نه جنگ، نه صلح» هستیم /هر رخنه امنیتی داخلی می‌تواند به اهرمی برای ضربه خارجی تبدیل شود /باید مسئله اتباع غیرمجاز را بازتعریف کنیم // Eghtesad News [Elektron resurs]. – 17.12.2025. – URL: https://www.eghtesadnews.com/ (murojaat sanasi: 20.03.2026).

16. Ян Эгеланн: Миллионы афганских беженцев в Иране нуждаются в срочной помощи // Karavan Info [Электронный ресурс]. – 01.06.2026. – URL: https://caravan-info.pro/jan-jegelann-milliony-afganskih-bezhencev-v-irane-nuzhdajutsja-v-srochnoj-pomoshhi/ (дата обращения: 25.06.2026).